



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD  
RAXMATULLAYEVICH**  
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:  
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**  
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi  
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**  
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini  
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga  
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**  
Правовые вопросы ведения интернет-  
ресурсов представительных органов  
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**  
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning  
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO'JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI  
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi  
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**  
Функции нотариата в современном  
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**  
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**  
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA  
O'KTAMOVNA**  
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA  
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**  
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**  
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./AQH09178>

UDC: 34(042)(575.1)

## HUQUQIY EKSPERIMENTNI O'TKAZISH BOSQICHLARI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

**Hayitov Sherzod Raxmatullayevich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrası

dotsenti v.b., PhD

ORCID: 0000-0003-3804-7210

e-mail: xayitov085@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada huquqiy eksperiment tushunchasi, uning turlari hamda tasnifi, shuningdek, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari milliy va xorij tajribasi asosida tahlil qilingan. Jumladan, huquqiy eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni uch bosqichda amalga oshirish taklif etilgan bo'lib, eksperiment o'tkazishga mas'ul bo'lgan subyektlar doirasi ham milliy qonunchilik asosida yoritilgan. Huquqiy eksperiment o'tkazilishi davlat siyosatining, islohotlarining tegishli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, undan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, huquqiy eksperiment ta'rifidan uning samaradorligi va natijadorligini baholashda muhim bo'lgan asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi. Huquqiy eksperimentning har bir bosqichi mustaqil vazifalar va harakatlar natijalarini aks ettiruvchi hamda mustahkamlovchi muayyan harakatlar va protsessual hujjatlar bilan tavsiflanishi, uning ahamiyati hamda muhimligi asoslantirildi. Maqolada huquqiy eksperiment yuzasidan xulosa va takliflar ilgari surilgan. Huquqiy eksperimentning o'ziga xos xususiyati uning maxsus ishlab chiqilgan maqsadga qaratilgani bo'lib, u yoki bu huquqiy gipotezani sun'iy ravishda yaratilgan muhitda tekshirish hamda eksperiment subyektlarining ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishdagi faol rolini aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** eksperiment, huquqiy eksperiment, norma ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihasi, huquqiy eksperiment subyektlari, mas'ul subyektlar, huquqiy eksperiment bosqichlari, tartibga solish ta'sirini baholash.

### ЭТАПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПРАВОВОГО ЭКСПЕРИМЕНТА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

**Хайитов Шерзод Рахматуллаевич,**

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье на основе национального и зарубежного опыта анализируются понятие правового эксперимента, его виды и классификация, а также этапы проведения правового эксперимента. В частности, предлагается осуществлять подготовку и проведение правового эксперимента в три этапа, при этом круг субъектов, ответственных за проведение правового эксперимента, освещается в рамках национального законодательства. Было отмечено, что проведение правового эксперимента положительно влияет на соответствующую сферу государственной политики, реформы, однако выявлены некоторые проблемы, препятствующие использованию правового эксперимента. Из определения правового эксперимента выделены основные характеристики, важные для оценки его эффективности.

и результативности. Обоснована значимость правового эксперимента, так как каждая его стадия характеризуется выполнением определённых задач, предполагающих осуществление конкретных действий и закрепления их результата в процессуальных документах. В статье выдвигаются соответствующие выводы и предложения по правовому эксперименту. Особенность правового эксперимента состоит в том, что он направлен на достижение специально разработанной цели, заключающейся в проверке той или иной правовой гипотезы в искусственно созданной среде и определении активной роли субъекта эксперимента в развитии общественных отношений.

**Ключевые слова:** эксперимент, правовой эксперимент, нормотворчество, нормативно-правовые акты, законопроект, субъекты правового эксперимента, ответственные субъекты, этапы правового эксперимента, оценка регулирующего воздействия.

## STAGES OF THE LEGAL EXPERIMENT: THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

**Khayitov Sherzod Rakhmatullaevich**

Acting Associate Professor of the Department of  
Theory of State of Law, PhD in Law,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article analyzes the concept of legal experiment, its types and classification, as well as the stages of legal experiment on the basis of national and foreign experience. In particular, it is proposed to prepare and conduct a legal experiment in three stages, while the range of subjects responsible for conducting a legal experiment is covered within the framework of national legislation. It was noted that conducting a legal experiment has a positive effect on the relevant area of public policy and reform, but some problems have also been identified that impede the use of a legal experiment. In the definition of a legal experiment, the main characteristics important for evaluating its effectiveness and efficiency are highlighted. The importance of the legal experiment is substantiated since each of its stages is characterized by the fulfillment of certain tasks involving the implementation of specific actions and the consolidation of their results in procedural documents. The peculiarity of the legal experiment is that it is aimed at a specially developed goal, which consists in testing one or another legal hypothesis in an artificially created environment and determining the active role of the subject of the experiment in the development of social relations.

**Keywords:** experiment, legal experiment, rulemaking, normative legal acts, draft law, subjects of legal experiment, responsible subjects, stages of legal experiment, assessment of regulatory impact.

### Kirish

Huquqiy eksperimentdagi huquqiy gipotezaning eksperimental tadqiqotlarga ta'sir etuvchi omillarini hisobga olgan holda, ushbu institutni eksperimental huquqiy normalarning samaradorligi, foydaliligi va tejamkorligi to'g'risida ilmiy asoslangan taxmin sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Shuni ta'kidlash kerakki, huquq ijodkorligi eksperimentida huquqiy gipoteza asosiy tarkibiy qism hisoblanadi, uning mavjudligi, o'z navbatida huquqiy eksperimentning zarurligini asoslash imkonini beradi.

Huquqiy eksperimentning gipotezasining huquqiy shakli, maxsus ishlab chiqilgan maqsadining mavjudligi, oldindan ishlab chiqilgan dasturining mavjudligi, eksperiment o'tkaziladigan hududi va vaqtini aniq belgilash zarur [1, 4-b.].

Bizningcha, huquqiy eksperimentni o'tkazishda quyidagi vazifalarga tayanilishi kerak: samarali huquqiy modelni shakllantirish; tadqiqot mavzusi to'g'risida bilimlarni to'plash; huquqiy hodisalar sohasida obyektiv haqiqatni o'rnatish; huquqiy sohadagi shoshilinch va samarasiz yoki sifatsiz huquqiy o'zgarishlar-

ning oldini olish. Tahlillarga ko'ra, qonunchilik hujjatlari bilan har yili o'rtacha 10 ga yaqin huquqiy eksperimentlar o'tkazilmoqda. Biroq huquqiy eksperiment o'tkazish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar kompleks tarzda tartibga solinmagani huquqni qo'llashda ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Jumladan, amalda huquqiy eksperiment o'tkazish shartlari va davomiylik muddati, huquqiy eksperimentni joriy etish mumkin bo'lmagan sohalar, huquqiy eksperimentning yuqori turuvchi qonunlarga nomuvofiq bo'lganda tartibga solinishi, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar, eksperiment asosida o'rnatilgan tartibga muvofiq olingan ma'muriy hujjatlarning eksperiment yakunlariga ko'ra amal qilishi yoki qilmasligi yoxud javobgarlik masalalari tartibga solinmagan.

Huquqiy eksperimentning o'ziga xos xususiyati uning maxsus ishlab chiqilgan maqsadga qaratilgani bo'lib, u yoki bu huquqiy gipotezani sun'iy ravishda yaratilgan muhitda tekshirish hamda eksperiment subyekti-ning ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishdagi faol rolini aniqlashdan iborat.

### **Material va metodlar**

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil metodidan faol foydalanilgan bo'lib, huquqiy eksperiment institutini xorijiy va milliy tajriba asosida taqqoslagan holda ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada deduksiya, analiz va sintez metodlari yordamida ma'lumotlar tahlil etilgan. Bundan tashqari, prognozlashtirish metodidan foydalangan holda mamlakatimizda huquqiy eksperiment institutidan samarali foydalanishga doir fikr va xulosalar ilgari surilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Eksperiment o'tkazish bo'yicha harakatlari yig'indisiga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Huquqiy eksperiment jarayoni – vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muammoni hal qilish yoki hal qilishga qaratilgan yuridik ahamiyatga ega

harakatlarni amalga oshirish orqali ro'yobga chiqariladigan huquqiy jarayonning bir turi sanaladi.

S.S. Alekseyev tomonidan taklif qilingan "huquq" tushunchasidan foydalanib [2, 18-b.], huquqiy eksperimentning elementlaridan biri uning asosi – normativ-huquqiy hujjat ekanligini hisobga olib, quyida tavsiflangan huquqning funksiyalari va subfunktionalari asosida ko'rib chiqishda qo'llanishi mumkin, degan xulosaga keldik. Boshqa tomondan, huquq ijodkorligi funksiyalariga e'tibor berish, uning funksiyalarini va huquqiy eksperiment bilan o'zaro bog'lash, taqqoslash mazkur masalani hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy eksperimentni amalga oshirish jarayonidagi xususiyati uning huquqiy tajriba, hodisani eksperimental usul bilan aniqlash, tadqiqot, sinov maqsadida ma'lum bir sharoitda biror narsa yaratish imkoniyatidan samarali foydalanish zarurligida namoyon bo'ladi [3, 24-b.]. Ushbu xususiyat huquq ijodkorligi subyektiga eksperiment natijasida real haqiqat to'g'risida xulosa qilishga imkon beradi. Huquqiy eksperiment real ijtimoiy obyektida, hayotdagi ijtimoiy munosabatlarda amalga oshiriladi.

Huquqiy tartibga solishda eksperimental yondashuvdan foydalanish, bir tomondan, qator afzalliklarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning kamchiliklari ham bor. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur yondashuv qonun chiqarishning yangi mexanizmlarini o'zgartirish yoki yaratishga asoslangan jiddiy o'zgarishlarni talab qilmaydi, balki qonun ijodkorligi faoliyatini tuzatish va uni to'g'ri yo'lga solish hisoblanadi [4, 42-b.].

Rob van Gestel va Gays van Deyk huquqiy eksperiment afzalliklari orasida yangi bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy bilimlarni kamaytirish va xavflarni noto'g'ri idrok etishdan qochish (ularni kam baholash yoki ortiqcha baholash), tartibga soluvchi subyektlar va tartibga solinadigan obyektlar o'rtasidagi axborot assimilyatsiyasini bartaraf etish, mavjud muammolarni yechishning maqbul

yo'llarini aniqlash, ortiqcha xarajatlarning oldini olish va boshqalarni ko'rsatib o'tadi [5, 539-b.].

Yana bir afzalligi, Z.J. Gubler ko'rsatib o'tganidek, huquqiy eksperiment asosida qo'llangan huquqiy normalar o'tkazish muddati yakunlanishi bilan o'z-o'zidan to'xtaydi, bu esa normativ-huquqiy hujjatni bekor qilish bilan bog'liq xarajatlarning oldini olishga xizmat qiladi [6, 447-b.].

M.B. Abramovich o'tkazgan tadqiqotida huquqiy eksperiment o'tkazilishi davlat siyosati, islohotlarining tegishli sohalariga bir necha jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatishi aytilgan:

- eksperiment o'tkazish orqali yangi ma'lumotlarni olish va tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi;

- huquqiy eksperimentlar davlat tomonidan uzoq va qisqa muddatli rejalangan islohotlarni amalga oshirishga yordam berishi mumkin;

- huquqiy eksperiment natijalarini muhokama qilish qonun chiqaruvchining maqsadlari shaffofligini ta'minlashga yordam beradi [7, 66-b.].

Olimlar huquqiy eksperiment natijasida davlat hokimiyati organlari o'zlarining siyosiy maqsadlarini xalq oldida aprotatsiyadan ham o'tkazib olish imkoniyatiga ega bo'lishi haqida turli qarashlarni ilgari surganlar. Jumladan, R.H. Rojers-Dillon o'zining tadqiqotlarida huquqiy eksperimentning quyidagi asosiy institutsional va siyosiy funksiyalarini ko'rsatadi:

- muayyan siyosatni qo'llab-quvvatlash uchun yangi institutsional tuzilmalarni yaratish, jumladan, moddiy infratuzilmani yaratish, shuningdek, yangi rejimga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan eski tuzilmalarni o'zgartirish yoki ularni tugatish;

- ilgari surilayotgan yangi siyosiy qarashlar va g'oyalarni qonuniylashtirish [8, 253-b.].

M.B. Abramovich ta'kidlaganidek, hozirgi huquqiy madaniyatda islohotlardan ko'ra huquqiy eksperiment o'tkazish osonroq va samaraliroq bo'lishi mumkin [7, 66-b.].

Huquqiy eksperimentning salbiy tomonlari haqida ham olimlar orasida turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. R.H. Rojers-Dillonning fikricha, huquqiy eksperiment qo'llanishi fuqarolarning huquqlarini buzish xavfini oshirishi yoki amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlarini himoya qilish choralariga nisbatan noqulay ahvolga solishi mumkin [8, 253-b.].

Bundan tashqari, ayrim mualliflar huquqiy eksperimentdan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatadilar:

- 1) ularni uslubiy ta'minlashdagi kamchiliklar;

- 2) eksperimental qoidalar va tartib-taomillar samaradorligini baholashning aniq va qat'iy mezonlarining yo'qligi;

- 3) eksperimental omil va uning ta'sirini ajratib olishdagi qiyinchiliklar;

- 4) normativ-huquqiy hujjatlar doirasida huquqiy eksperimentlarni joriy etish normalarining tizimlashtirilmagani.

Shunga qaramay, huquqiy eksperimentlarni tavsiflovchi salbiy jihatlarni hisobga olgan holda, ularning qonun ijodkorligi va umuman yuridik faoliyat uchun ijobiy ahamiyati yuqori ekanligi to'g'risida qat'iy xulosa qilish mumkin.

Norma ijodkorligida huquqiy eksperiment murakkab va mas'uliyatli, shu bilan birga, yangi institut bo'lgani sababli uni samarali tarzda o'tkazish jiddiy yondashuvni talab etadi. Shu bois bu jarayondagi har bir elementga alohida e'tibor qaratiladi. Huquqiy eksperiment bo'yicha ilmiy tadqiqot o'tkazgan olimlar ushbu jarayonni bir necha bosqichga ajratib tadqiq qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qarashlarni ilgari suradilar.

T. Y. Zyablova va D.V. Parfenova o'z tadqiqot ishida eksperimental-huquqiy jarayon deganda vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek, boshqa manfaatdor huquq subyektlarining huquqiy eksperimentni loyihalashtirish, tayyorlash

va o'tkazish hamda uning natijalarini sarhisob qilish bo'yicha huquqiy tartibga solingan faoliyatini tushunishni taklif qilgan [9, 138-b.].

Huquqiy eksperiment bosqichlari haqida turli adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning bir qanchasini ko'rib chiqish ushbu bosqichlar mohiyatini tushunib yetish imkonini beradi. Jumladan, Y.S. Osina quyidagi bosqichlarni ko'rsatib beradi:

1) huquqiy eksperimentni loyihalashtirish bosqichi;

2) huquqiy eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bosqichi;

3) huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichi;

4) huquqiy eksperiment natijalarini sarhisob qilish bosqichi;

5) huquqiy eksperiment natijalarini hayot (amaliyot)ga tatbiq qilish bosqichi [10, 88-b.].

Huquqiy eksperiment ta'rifidan uning samaradorligi va natijadorligini baholash uchun muhim bo'lgan asosiy xususiyatlarini ajratib olish kerak. Bizningcha, ushbu xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

– tashkil etish (eksperiment bo'yicha chora-tadbirlarning mavjudligi). Ushbu xususiyat huquqiy eksperimentning oldindan rejalashtirilganini va bu reja u yoki bu shaklda mustahkamlanganini anglatadi [11, 8-b.].

– maqsad va kutilayotgan natijaning mavjudligi. Ushbu xususiyat eksperiment maqsadi muayyan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini tekshirish bilan cheklanib qolmasligi, balki davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish sifatini (uning asosiligi, samaradorligi va natijadorligi) oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak;

– huquqiy eksperimentning yangiligi. Eksperiment ilgari davlat boshqaruvida umuman foydalanilmagan yoki aniq davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun biror davlat organi faoliyatida bevosita foydalanilmagan yangi texnologiyalar, jarayonlar, modellar va talablarni sinovdan o'tkazishni nazarda tutadi;

– huquqiy eksperiment natijalarini, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini baholash va bunday baholash natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, shu jumladan tasdiqlangan texnologiyalar, jarayonlar, modellar va (yoki) talablarni to'liq miqyosda joriy etishning maqsadga muvofiqligi;

– cheklangan doirada olib borilishi: eksperiment ishtirokchilar sonini, eksperiment o'tkaziladigan ijtimoiy munosabat turlarini, eksperiment o'tkaziladigan subyektlarni, u amalga oshirilgan hududlarni aniq belgilash orqali amalga oshiriladi;

– cheklangan vaqt doirasida o'tkazilishi: huquqiy eksperiment dastlab cheklangan muddatga rejalashtiriladi, shundan so'ng ijobiy natijalar mavjud bo'lsa, eksperimental amaliyot tajriba maydonlarida davom ettirilishi va kengaytirilishi mumkin;

– eksperiment bilan bog'liq xavflarning mavjudligi: bu ularni minimallashtirish choralari ko'rishni talab qiladi.

Shu jihatdan, bu bosqichlarni ko'plab olimlar huquqiy eksperiment o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, huquqiy eksperimentni o'tkazish va xulosalar chiqarishdan iborat deb ko'rsatadi. Har bir bosqich mustaqil vazifalar va harakatlar natijalarini aks ettiruvchi hamda mustahkamlovchi muayyan harakatlardan va protsessual hujjatlar bilan tavsiflanadi. Shu sababli bu bosqichlar o'z navbatida bir nechta kichik elementlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchi bosqich – huquqiy eksperiment o'tkazishga tayyorgarlik. Qayd etish kerakki, huquqiy eksperimentning qay darajada samarali o'tkazilishini belgilab beruvchi harakatlar aynan shu bosqichdan boshlanadi. Ma'lumki, norma ijodkorligi jarayoni normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni tayyorlashni rejalashtirishdan boshlanadi. Biroq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish bosqichini huquqiy eksperiment o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishning boshlang'ich nuqtasi sifatida belgilash mumkinmi?!

Albatta, ushbu savolga javob berish uchun huquqiy eksperimentning huquqiy tabiatidan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Qonunga asosan, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ tomonidan normativ-huquqiy hujjat samaradorligini, uning vaqtincha amal qilishini muayyan hududda va (yoki) shaxslar doirasi bo'yicha cheklagan holda o'rganish huquqiy eksperimentdir.

Ko'rinib turibdiki, normativ-huquqiy hujjat samaradorligini huquqiy eksperiment tariqasida o'rganish normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishga vakolatli subyekt tomonidan belgilanadi. Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini rejalashtirish esa ularni qabul qilishga vakolatli bo'lmagan subyektlar tomonidan ham ishlab chiqilishi mumkin.

Jumladan, qonun loyihalarini qabul qilishga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi vakolatli bo'lsa-da, ularning loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha hukumat o'zining yaqin istiqbolga va uzoq muddatga mo'ljallangan rejalarini ishlab chiqishi mumkin. Shu jihatdan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash tashabbusi bilan chiqish bosqichini huquqiy eksperiment o'tkazishning boshlang'ich nuqtasi sifatida olib bo'lmaydi, nazarimizda. Ya'ni bu bosqichda ham normativ-huquqiy hujjat loyihasi odatdagi loyiha ko'rinishida vakolatli organga kiritiladi. Loyihani huquqiy eksperiment sifatida o'rganish esa vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng belgilanadi.

Huquqiy eksperiment o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bosqichi haqida gapirilganda norma ijodkorligining yangi instituti bo'lgan tartibga solish ta'sirini baholash haqida to'xtalish joiz. Sababi har ikkala institut ham normativ-huquqiy hujjatning amaliyotda samarali ishlashini aniqlashga qaratilgan. Jumladan, tartibga solish ta'sirini baholash normativ-huquqiy hujjat loyihasining qabul qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy oqibatlarni va uning tartibga solish maqsadlariga erishilishini, shuning-

dek, amaldagi normativ-huquqiy hujjatning ushbu normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga soluvchi munosabatlarga ta'sirining samaradorligi va natijadorligini aniqlash hamda baholashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir [12].

Huquqiy eksperimentni joriy qilishga qaratilgan maxsus hujjatda uni joriy qilishning zarur talablari va shartlari majmui ham nazarda tutilishi lozim. Ushbu shartlar va talablar doirasiga quyidagilarni alohida kiritishimiz zarur:

birinchidan, huquqiy eksperiment natijasidan kutilayotgan aniq maqsadlar belgilanishi kerak. Bunday maqsadlar sirasiga eksperimental huquqiy rejimni amalga oshirish natijalari asosida iqtisodiy faoliyatning yangi turlari va shakllari paydo bo'lishi, raqobatni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, innovatsiyalar uchun qulay sharoitlar va boshqalar ko'rsatilishi mumkin;

ikkinchidan, huquqiy eksperimentning prinsiplari. Bunday prinsiplar sirasiga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashga yo'l qo'yilmasligi, huquqiy ishonchlilik, ochiqlik, jamoatchilik fikrining inobatga olinishi, jamoatchilik muhokamalari va boshqalar kiradi;

uchinchidan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarga nisbatan kafolatlar o'rnatilganligi. Eng avvalo, joriy etilgan huquqiy eksperimentni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday zardan himoyalash bo'yicha davlat kafolatlari;

to'rtinchidan, huquqiy eksperimentni joriy qilish muddatlari aniq belgilanishi zarur.

V.I. Chervonyuk yuqoridagilardan tashqari huquqiy eksperiment natijalarini ko'rib chiqish tartib-taomillari, tashabbuskorlarning maqomi, shu jumladan, ularga huquqlarni berish, maqomni tugatish asoslari va tartiblari bilan bog'liq bo'lgan maxsus kompleks qoidalarni ham maxsus hujjatda aks ettirish zarurligini qayd etadi [13, 273-b.]. Ushbu fikrga to'liq qo'shilgan holda aytish kerak-

ki, eksperimentni joriy qilishga qaratilgan hujjat o'zida uni tashkil qilishning barcha tartib-taomillari, yakuniy xulosa jarayonini belgilab beruvchi o'ziga xos ma'muriy reglament rolini bajarishi zarur.

Norma ijodkorligi jarayoni hamda huquqiy eksperiment tabiatidan kelib chiqib, huquqiy eksperiment o'tkazishga tayyorgarlik normativ-huquqiy hujjat loyihasi uni qabul qilishga vakolatli subyekt tomonidan ko'rib chiqilganidan so'ng boshlanadi. Ya'ni ushbu bosqichga qadar normativ-huquqiy hujjat loyihasi odatdagi tartibda norma ijodkorligi bosqichlaridan o'tib keladi.

Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ko'rib chiqish vaqtida tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha olingan hisobotlar, huquqiy va boshqa turdagi ekspertizalar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalaridan olingan xulosalar ko'rib chiqiladi. Vakolatli subyekt tomonidan to'plangan ma'lumotlarga tayanib, normativ-huquqiy hujjatning amaliyotda qanday ishlab ketishini aniqlash imkoni mavjud emas deb topilsa, loyihani huquqiy eksperiment sifatida o'rganish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Albatta, bunday qarorga kelish uchun fan va texnologiyalardagi innovatsiyalar – dronlar va robotlarning ijtimoiy munosabatlarga kirib kelishi, sun'iy intellektdan keng foydalanilishi kabi obyektiv omillar sabab bo'lib xizmat qiladi [14, 169-b.].

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

“Davlat”, “davlat-huquqiy”, “iqtisodiy”, “ijtimoiy eksperiment” tushunchalari, agar ularni amalga oshirish natijasida alohida normativ-huquqiy hujjat qabul qilish nazarda tutilsa, ushbu jarayonlarning barchasi “huquqiy eksperiment” tushunchasi bilan qamrab olinishi lozim. Davlat yoki ijtimoiy tuzumning har qanday sohasida islohot (innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish) uning asoslarini normativ-huquqiy hujjatda belgilamasdan turib to'liq joriy qilishning imkoni yo'qligini hisobga olib, bunday tajribalar har doim huquqiy xarakterda bo'lishi zarur [15, 77-b.].

Shu bois ham qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar huquqiy eksperimentni samarali tarzda o'tkazish maqsadida huquqiy eksperimentni o'tkazish to'g'risidagi qarorda quyidagi masalalar ochib berilishi kerak.

Birinchi bosqichda normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad aniqlashtiriladi. Samaradorlikni aniqlash mezonlari belgilanadi. Darhaqiqat, belgilangan maqsadga har doim ham to'liq erishilmasligi mumkin. Biroq erishilgan natija, alaloqibat, norma ijodkori uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Amal qilish hududi, vaqti va shaxslar doirasi belgilanadi. Huquqiy eksperimentning eng asosiy xususiyati normativ-huquqiy hujjat samaradorligini cheklangan doirada o'rganish hisoblanadi. Shu sababdan, huquqiy eksperiment sifatida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatning amal qilish hududi, vaqti va shaxslar doirasini belgilash kerak bo'ladi.

Muqobil variantlar yaratiladi. Huquqiy eksperiment o'z tabiatiga ko'ra, norma ijodkori ilgari surgan farazlarni amaliyotda sinab ko'rishni bildiradi. Farazning esa odatda bir necha muqobil variantlari bo'ladi. Shu jihatdan, huquqiy eksperiment sifatida ilgari surilayotgan normativ-huquqiy hujjat qabul qilinayotganda uning bir nechta muqobil variantlari bo'lishi kerak. Agar birinchi variant amaliyotda o'z tasdig'ini topmasa, ikkinchi variant ilgari surilishi kerak.

Mas'ul guruh belgilanadi. Ma'lumotlar bilan ishlash usuli o'rganiladi. Ishchi guruh monitoring o'tkazish davomida ma'lumotlarni olish, ularga ishlov berish va olingan natijalarga baho berish usullarini oldindan ishlab chiqishi kerak.

Huquqiy eksperiment o'tkazish dasturi ishlab chiqiladi. Ushbu dasturda huquqiy eksperimentni amalga oshirish jarayonida bajariladigan chora-tadbirlar, muddatlari va mas'ul ijrochilari bilan birgalikda ko'rsatiladi. Shuningdek, dasturda natijalarni olishning oraliq va yakuniy bosqichlari ko'rsatiladi.

Ikkinchi bosqich huquqiy eksperiment o'tkazish bosqichi bo'lib, bunda huquqiy eksperiment sifatida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat amaliyotga tatbiq etiladi. Huquqiy eksperiment o'tkazish bosqichi normativ-huquqiy hujjat kuchga kirgan vaqtdan boshlanadi. Mas'ul organ huquqiy eksperimentni samarali amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni ta'minlashi kerak bo'ladi. Jumladan, huquqiy eksperiment o'tkazish dasturi bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini va umumiy jarayonning doimiy monitoring qilib borilishini ta'minlashi kerak bo'ladi. Mas'ul ishchi guruh tomonidan huquqiy eksperimentni amalga oshirish davomida sarflangan xarajatlar va shaxslarga yetkazilgan moddiy va nomoddiy zararlar hisobga olinishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan harakatlarni amalga oshirish uchun, avvalo, ishchi guruh zarur moddiy-texnika bazasi va tegishli subyektlardan kerakli axborotlarni olish vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Shuni ta'kidlash o'rinliki, qonunchilikda normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash yuzasidan zarur axborotlarni so'rab olish huquqi belgilangan. Biroq huquqiy eksperiment tariqasida amaliyotga tatbiq etilgan normativ-huquqiy hujjatning monitoringi yuzasidan aniq huquqiy asoslar shakllantirilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-noyabrdagi qarori bilan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash samaradorligini yanada oshirish, noto'g'ri yoki ziddiyatli huquqni qo'llash amaliyotiga olib keladigan normalar paydo bo'lishining oldini olish, ularni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi monitoringi amalga oshirilishi belgilandi. Biroq ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari doirasida amal qiladi. Huquqiy eksperiment esa o'z xususiyatiga ko'ra, barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Mas'ul ishchi guruh huquqiy eksperimentni o'tkazish jarayonida normativ-huquqiy hujjatning amaliyotda samarali ishlashini o'rganish maqsadida qator ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, huquqiy eksperiment tariqasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatning mazmun-mohiyati, qabul qilish sabablari va maqsadlari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

Huquqiy eksperiment joriy etilayotgan ijtimoiy munosabat ishtirokchilarining u haqda yetarli darajada tasavvurga ega bo'lishlari normativ-huquqiy hujjat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Albatta, ushbu chora-tadbir normativ-huquqiy hujjat kuchga kirgan dastlabki davrda amalga oshiriladi. Shundan keyin normativ-huquqiy hujjat mazmunini sharhlab tushuntirishni so'rab qilingan murojaatlar alohida o'rganiladi. Bu murojaatlarda normativ-huquqiy hujjatning aynan qaysi normalari bo'yicha tushuntirishlar so'ralayotgani qayd etib boriladi.

Bizningcha, mamlakatimizda "huquqiy eksperiment" konsepsiyasini amalga oshirishda ushbu konsepsiyaning barcha afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda, uning natijasida yuzaga keladigan barcha tavakkalchiliklarni to'g'ri hisobga olishga imkon beradigan muvozanatli yondashuvni shakllantirish muhimdir.

Huquqiy eksperiment mohiyatan fandagi eksperimentdan unchalik farq qilmaydi. Ushbu ikki holatda ham eksperimentni to'g'ri o'tkazish juda muhim sanaladi. Huquqiy eksperiment odatda ma'lum bir muammoning tartibga solish mexanizmlarini sinab ko'rish uchun ishlatiladi. Bunday sinov cheklangan vaqt davomida amalga oshiriladi. O'rganish davomida aniqlanadigan yana bir jihat huquqiy eksperiment predmeti bo'yicha kelib chiqayotgan nizolar, ularning sabablari,

shuningdek, mazkur nizolarning yechimi sifatida ko'rilgan chora-tadbirlar, jumladan, sud tartibida hal qilingan holatlarning tahlilidir. Shuningdek, vaqti-vaqti bilan huquqiy eksperiment bo'yicha ishtirokchilarning munosabatlari o'rganib turiladi. Bunda ular tomonidan normativ-huquqiy hujjat bo'yicha kelib tushgan arizalar, takliflar va shikoyatlar ham o'rganilishi lozim.

Huquqiy eksperimentni amalga oshirish dasturi bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida oraliq natijalar chiqariladi va ma'lumotnoma tayyorlanadi. Ushbu ma'lumotnomada shu paytgacha qadar olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra, dasturga ayrim o'zgartirishlar ham kiritilishi mumkin.

Huquqiy eksperimentning samaradorligini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri, shubhasiz, moliyaviy hisob-kitoblar, jumladan, sarflangan xarajatlar tahlili hisoblanadi. Kuchga kirgan normativ-huquqiy hujjat qoidalarini aylanib o'tish orqali sodir etilgan huquqbuzarliklar, jumladan, korrupsiyaviy holatlar tahlili yuritiladi.

Huquqiy eksperimentning muayyan davrida ishchi guruhning o'zi ham tekshirilishi, jumladan, taqdim etilgan ma'lumotlar qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin. Huquqiy eksperiment o'tkazilishi natijasida kelib chiqqan ijobiy va salbiy oqibatlar o'rganib chiqiladi. Ularning o'zaro nisbati aniqlanadi va tegishli xulosa shakllantiriladi. Ushbu harakatning bajarilishi huquqiy eksperiment samaradorligini real aniqlash imkonini beradi.

Huquqiy eksperimentning uchinchi bosqichi – yakuniy natijalarni umumlashtirish va xulosa tayyorlash hisoblanadi. Uchinchi bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

Oraliq va yakuniy natijalar umumlashtiriladi hamda tahlil qilinadi. Bunda dasturda belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilgani, shuningdek, olingan ma'lumotlar asosli, to'g'ri va to'liq ekanligi ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi. Natijalar tahlili yuzasidan xulosa tayyorlanadi. Xulosada ushbu qarorlardan biri qabul qilinadi:

huquqiy eksperiment asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat ma'qullanadi va cheklanmagan doiradagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan kuchga kiritiladi. Bunda huquqiy eksperiment muddatidan oldin ham tugatilishi mumkin [16, 135-b.];

normativ-huquqiy hujjat matniga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi hamda cheklanmagan doiradagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan kuchga kiritiladi;

huquqiy eksperiment sifatida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat samarasiz deb topiladi va huquqiy eksperiment sifatida keyingi muqobil loyiha qabul qilinadi. Bunda huquqiy eksperiment davom ettiriladi;

huquqiy eksperiment o'tkazish muddati uzaytiriladi va o'rganish davom ettiriladi. Huquqiy eksperiment o'tkazish dasturiga ayrim o'zgartirishlar kiritilishi ham mumkin.

Huquqiy eksperiment asosida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat samarasiz deb topiladi va bekor qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, huquqiy eksperimentni o'tkazish murakkab va bir necha bosqichdan iborat jarayon hisoblanadi. Shu sababli ushbu jarayon aniq belgilangan normalar asosida, mantiqiy izchillikda o'tkazilishi samarali huquqiy eksperiment bo'lishining garovi hisoblanadi. Umuman olganda, huquqiy eksperiment o'tkazish bo'yicha jarayonning huquqiy asoslari ishlab chiqilmagani ushbu institutni amaliyotga samarali tatbiq etish imkonini bermaydi.

Nazarimizda, huquqiy eksperiment instituti hamda uning tuzilishi, funksiyasi, uni amalga oshirish chegaralari va eksperiment ishtirokchilarining huquqiy maqomi hamda kafolatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan; qanday holatlarda huquqiy eksperimentlarni amalga oshirish foydali yoki zarur bo'lgan holatlarning aniq bir mezonlari belgilanmagan. Huquqiy eksperimentni tashkil qilish va o'tkazish tartibini belgilovchi, ularni ilmiy tashkil qilishni ta'minlaydigan tavsiyalar va uslubiy ko'rsatmalar hamda natijalarni obyektiv ekspertizadan o'tkazishni tartib-

ga soluvchi normativ-huquqiy hujjat mavjud emas.

Jamiyatda tez sur'atlarda rivojlanayotgan texnologik va raqamli o'zgarishlarni tartibga solish ehtiyoji yuzaga kelayotgan ekan, eksperimental qonunchilikni amalga oshirishning ajralmas qismi sifatida uni davriy yoki yakuniy qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratish muhim sanaladi [17, 15-b.].

Huquqiy eksperiment natijasini baholashda ham uni faqat ikkita ko'rsatkich – "omadli" va "muvaffaqiyatli" deb ajratish orqali soddalashtirishga urinish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblovchi olimlarning fikriga to'liq qo'shilamiz. Sababi ushbu holatda huquqiy eksperiment o'tkazilayotgan huquqiy hujjatni tartibga solish yo'nalishi va sohasi, shuningdek, uni to'g'rilash imkoniyatlari haqida ham o'ylash maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, huquqiy eksperimentni baholashning aniq mezonlarini, maqsadlarga erishishning asosiy ko'rsatkichlari va shartlarini oldindan belgilash zarur.

Jahon amaliyoti tajribasida huquqiy eksperimentlarni o'tkazish hamda natijalarini real hayotga joriy etish norma ijodkorligi faoliyatining eng zamonaviy hamda rivojlangan usullaridan biridir. Albatta, bu usul orqali ishlab chiqilayotgan huquqiy norma loyihalarini hayotda qanday ishlab ketishi yuzasidan haqqoniy ilmiy-amaliy asoslangan tavsiya hamda xulosalar olish imkoniyati paydo bo'ladi.

### **Xulosalar**

Xulosa qilib, huquqiy eksperimentning ahamiyati hamda muhimligini quyidagicha:

1. Huquqiy eksperiment ilmiy-nazariy tekshirishning eng muhim vositasi bo'lib, davlat-huquqiy hodisalar borasida obyektiv haqiqatni o'rnatish mezonlari bilan bir qatorda turadi [17, 9-b.].

2. Eksperiment natijasida olingan xulosalar huquqiy munosabatlarni ilmiy bilish qonuniyatlarini rivojlantirish, jamiyatda huquqiy tartibotni takomillashtirish va mustahkamlash, xolisona rivojlanayotgan jarayonlarga

inson ongi ta'sirining chegarasi va usullarini bilish kuchiga ega.

4. To'g'ri tanlangan hamda tashkillashtirilgan huquqiy eksperimentning katta tarbiyaviy ta'siri bor.

5. Norma ijodkorligi jarayonida huquqiy eksperiment o'zining alohida o'rniga ega.

6. Nazariy tadqiqotlar hamda amaliyotni bir-biri bilan uzviy bog'lagan holda huquqiy eksperiment amaliyotchilar takliflari hamda nazariyotchi olimlarning ilmiy sa'y-harakatlarini birlashtirib turuvchi "ko'priq" vazifasini ham o'taydi.

Huquqiy eksperiment bilan bog'liq savollarning faol rivojlanishi doimo yuridik fanlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ijtimoiy-huquqiy eksperimentlar oldin mavjud bo'lgan huquqiy mexanizmni butunlay rad etish yoki uni keskin tarzda o'zgartirishni nazarda tutmaydi.

Agar huquqiy eksperiment natijasida unda qo'llangan qonunchilikning afzalliklari, moliyaviy xarajatlari maqbul bo'lsa va kelgusida kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar namoyon bo'lmasa, u holda huquqiy eksperiment natijasi ijobiy baholanib, normativ-huquqiy hujjat kengroq mintaqa yoki butun davlat hududiga nisbatan qo'llanishi mumkin.

K. Kalliesning qayd etishicha, "Eksperimental tartibga solish davlat organlariga yangi tartibga solish usullarini sinab ko'rish va ularning natijalarini baholash imkonini beradi. Bunday tartibga solish amaldagi qonunchilikdan chetga chiqqan holda eksperimental asosda qabul qilingan buyruqlar yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar shaklida amalga oshirilishi mumkin" [18, 15-b.].

Me'yoriy-huquqiy baza huquqiy eksperiment natijalarini baholash haqida eslatib o'tmaydi, lekin bunday baholash, albatta, amalga oshiriladi va muayyan normani majburiy ravishda kiritish zarurati yoki ushbu g'oyani ma'lum sabablarga ko'ra haqiqiy emas, deb tan olish to'g'risida yakuniy qaror

qabul qilishda ishonchli qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

O'tkazilgan huquqiy eksperiment natijasi-da olingan xulosalar kamida uchta savolga javob berishi kerak:

1. Normativ-huquqiy hujjat huquqiy eksperiment oldidan qo'yilgan maqsadlarga erishdimi?

2. Huquqiy eksperimentdan o'tkazilgan me'yoriy-huquqiy hujjatning qabul qilinishi qonun bilan himoyalangan qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi?

3. Huquqiy eksperiment natijalariga ko'ra normativ-huquqiy hujjatni doimiy tartibga soluvchi huquqiy hujjat sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqmi?

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda huquqiy eksperiment amaliyotini takomillashtirish usullaridan biri sifatida huquqiy eksperiment samaradorligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish (ta'minlash) ehtiyoji mavjud. Ushbu shartlar huquqiy eksperimentlar samaradorligining

ularni tayyorlash va amalga oshirish sifatiga, tegishli davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari, boshqa subyektlar – eksperiment ishtirokchilari faoliyati darajasiga, ularning huquqiy ongi va boshqalarga bog'liqligini tavsiflaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, huquqiy eksperimentning samaradorligi shartlari huquqiy eksperiment maqsadlariga erishishda, ushbu maqsadlarning hayotga tatbiq etilishiga yordam beradigan holatlardadir.

Huquqiy eksperimentning samaradorligi shartlari, shuningdek, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati mavjudligini, tegishli huquqiy eksperimentlarda ishtirok etuvchilarning – eksperiment tashkilotchilari va eksperimental guruh a'zolarining yuqori huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati, yuridik tajribalarini oshirish masalalariga e'tibor qaratish zarur. Tashkiliy chora-tadbirlarning to'g'ri yaratilgani huquqiy eksperimentlarni o'tkazishda xatolarni minimallashtiradi, uning samarali natijasiga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Zagaynova G.G. Organy mestnogo samoupravleniya - obyekt dlya konstitutsionno-pravovogo eksperimenta [Local government bodies - an object for a constitutional and legal experiment]. *Pravo i praktika – Law and Practice*. 2018, no. 4.
2. Alekseev S.S. Pravo. Azbuka. Teoriya. Filosofiya. Opyt kompleksnogo issledovaniya [Right. ABC. Theory. Philosophy. Experience of complex research]. Moscow, Norma-Infra publ., 1998, p. 18.
3. Makarov I.I. Printsipy provedeniya pravovykh eksperimentov v organizatsii mestnoy vlasti: vzglyady sovetskikh yuristov [Principles of conducting legal experiments in the organization of local authorities: views of Soviet lawyers]. *Gosudarstvennaya i munitsipalnaya sluzhba – State and Municipal service*, 2013, no. 1, p. 24.
4. Anokhin Yu. V. Mekhanizm gosudarstvenno-pravovogo obespecheniya prav i svobod lichnosti (na materialax Rossiyskoy Federatsii) [Mechanism of state legal provision of individual rights and freedoms (based on materials of the Russian Federation)]. PhD thesis. Saratov publ., 2007, p. 42.
5. Gestel, van R., Dijck, van G. Better Regulation through Experimental Legislation. *European Public Law*, 2011, vol. 17, no. 3, pp. 539–553.
6. Gubler Z.J. Experimental Rules. *Boston College Law Review*, 2014, vol. 55, no. 1, pp. 129–179.
7. Abramowicz M.B. Randomized Legal Experimentation. GW Law Faculty Publications. *Other Works. Paper*, 2008, p. 66.
8. Rogers-Dillon R.H. The Welfare Experiments: Politics and Policy Evaluation. Stanford (California), Stanford Law and Politics. 2004, 253 p.

9. Zyablova T. E., Parfenova D. V. O znachenii pravovogo eksperimenta v pravotvorcheskom protsesse [On the importance of legal experiment in the law-making process]. *Modern Science*, 2021, no. 2-1, pp. 138–143.
10. Osina Ye.S. Pravotvorcheskiy eksperiment kak metod pravotvorcheskoy deyatel'nosti [Law-making experiment as a method of law-making activity]. *Logika i Metodologiya nauchnykh issledovaniy – Logic and Methodology of Scientific Research*, 2020, pp. 88–98.
11. Yujakov V.N., Dobrolyubova Ye.I., Yefremov A.A. Podxody k otsenke rezultativnosti i effektivnosti eksperimentov v gosudarstvennom upravlenii [Approaches to assessing the effectiveness and efficiency of experiments in public administration]. *Vestnik VGU. Seriya: Pravo – VGU newspaper. Series: Law*, 2021, no. 3, pp. 8–26.
12. Yelsov V.N. Pravovoy eksperiment v sovremennoy Rossii: problemy effektivnosti [Legal experiment in modern Russia: problems of efficiency]. PhD thesis, 2009, p. 17.
13. Chervonyuk V. I. Innovatsionnyye yuridicheskiye tekhnologii [Innovative legal technologies]. *Yuridicheskaya texnika – Legal technology*, 2021, no. 15, pp. 273–293.
14. Heldeweg M. A. Experimental legislation concerning technological & governance innovation—an analytical approach. *The Theory and Practice of Legislation*, 2015, vol. 3, no. 2, pp. 169–193.
15. Hlukhenkyi S. Structure of legal experiment as a element of regulation. *Innovative Solution in Modern Science*, 2021, vol. 8, no. 44, pp. 77–86.
16. Kochetkov A.V., Yelsov V.N. Problemy i sposoby povysheniya effektivnosti pravovogo eksperimenta [Problems and ways to increase the effectiveness of legal experiment]. *Pravovaya politika i pravovaya jizn – Legal Policy and Legal Life*, 2009, no. 3, pp. 26–29.
17. Ranchordás S. Time, Timing, and Experimental Legislation. *The Theory and Practice of Legislation*, 2015, vol. 3, no. 2, pp. 135–139.
18. Calliess C. Towards a European Innovation Principle Endorsed by Better Regulation. *Berliner Online-Beitrage zum Europarecht*, 2020, 15 p.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.